

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI
ISHTIROKCHILARI UCHUN

TARIX
FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiyl oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[2,4 ball]

Davlatlar va ularning hukmdorlari o'zaro mos berilgan javobni aniqlang.

O'rta asrlar.

- 1) Uesseks qirolli; 2) Bolgariya podsholigi;
3) Chexiya davlati; 4) Franklar davlati.

a) Teodorix; b) Simeon; c) Xilperik; d) Buyuk Alfred; e) Boleslav I Jasur; f) Vatslav.

A) 1-d, 2-b, 3-e, 4-a B) 1-a, 2-f, 3-b, 4-c
C) 1-a, 2-f, 3-d, 4-b D) 1-d, 2-b, 3-f, 4-c

2.

[2,4 ball]

Quyida tarixiy hujjatlar (shartnomalar, sulkh)larning nomlari keltirilgan.

- 1) Kuchukqaynarji shartnomasi; 2) Vestfal sulhi; 3) Parij tinchlik shartnomasi ("Yetti yillik urush"); 4) Nishtadt tinchlik shartnomasi.

Ular orasidan ENG AVVAL imzolanganini aniqlab, uning natijasi keltirilgan javobni toping.

- A) Rossiya Boltiq dengiziga chiqish huquqiga ega bo'ldi
B) Hindiston va Shimoliy Amerikadagi fransuz mustamlakalari Angliyaga o'tdi
C) Qrim xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi
D) Katoliklar va protestantlar o'rtasidagi dushmanlikka barham berdi

3.

[3,4 ball]

Quyida berilganlardan Fransiya tarixiga oid bo'lganlarini toping.

- 1) "Tilzit shartnomasi";
2) "jirondachilar"; 3) "Xalqlar jangi"; 4) "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi";
5) "Dekabristlar harakati"; 6) "Xalq vechesi";
7) "Iyul monarxiyasi"; 8) "Sipohiylar qo'zg'oloni".

A) 1, 2, 4, 6, 7 B) 2, 3, 4, 6, 8
C) 2, 4, 5, 7, 8 D) 1, 2, 3, 4, 7

4.

[3,4 ball]

Quyidagilardan boshqalariga nisbatan ENG AVVAL (a) va ENG KEYIN (b) sodir bo'lganlarini aniqlang.

- 1) Bismark Germaniyada mavjud davlatlarning Prussiya bilan "Shimoliy Germaniya Ittifoqi"ni tuzish haqidagi shartnomani imzolashlariga erishdi;
2) Aleksandr II "Krepostnoy huquqni bekor qilish to'g'risida"gi Qonunni imzoladi;
3) Fransiya ta'sirida bo'lgan Rim shahri ham Italiya qirolligiga qo'shib olindi;
4) AQSh prezidentligi uchun bo'lgan saylovlarida Respublikachilar partiyasi vakili Avraam Linkoln g'alaba qozondi;
5) AQShda Shimol bilan Janub o'rtaosida fuqarolar urushi boshlandi;
6) AQShda qullik bekor qilindi;
7) Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilindi;
8) Koreyada hokimiyatni tevongun, ya'ni hokim nomi bilan mashhur Li Xa In egalladi.

A) a-2, b-5 B) a-6, b-1 C) a-4, b-8
D) a-7, b-3

5.

[3,4 ball]

Quyidagilar orasidan **to‘g‘ri ma’lumotlar** keltirilgan javobni aniqlang.

- 1) Adua yonidagi jangda Italiya qo‘sishnlari Efiopiya armiyasi tomonidan tor-mor etilgan yilda Fransiya Madagaskarni o‘z mustamlakasi deb e’lon qildi;
- 2) Frankfurt shahrida Fransiya-Germaniya sull shartnomasi imzolangan yilda Afg‘onistonda Jamoliddin al-Afg‘oniy “Xizb ul-Vatan” partiyasini tuzdi;
- 3) AQSh hukumati sentabrning birinchi dushmanbasini “Mehnat kuni” bayrami deb e’lon qilgan yilda Yaponiya Seulda saroy to‘ntarishi uyuşhtirib, yaponparast hukumat tuzdi;
- 4) Ingliz-bur urushi boshlangan yilda AQSh davlat kotibi Xeyning “Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar” siyosati e’lon qilindi;
- 5) Yaponiya tomonidan Koreya yarim oroli anneksiya qilingan yilda Rossiya tarixida birinchi inqilob yuz berdi;
- 6) imperator Nikolay II agrar islohot o‘tkazish va dehqonlarni ko‘chirish to‘g‘risida farmon chiqargan yilda Eron tarixida birinchi parlament – Majlis tuzildi;
- 7) Yaponiya va Xitoy o‘rtasida Simonoseki sulhi imzolangan yilda Rossiya va Usmonli davlati o‘rtasida Gandamak shartnomasi imzolandi.

- A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 7 C) 2, 4, 5, 6
 D) 1, 4, 5, 7

6.

[3,4 ball]

Eronning jahon hamjamiyatiga to‘laqonli integratsiyalashuviga to‘siq bo‘lib turgan yadroviy dasturi o‘n yildan oshiq davom etgan muzokaralardan so‘ng 2015-yil quyidagi **qaysi davlatlar tomonidan imzolangan kelishuv orqali hal qilingan?**

- 1) AQSh; 2) Yaponiya; 3) Xitoy; 4) Rossiya;
 5) Italiya; 6) Buyuk Britaniya; 7) Turkiya;
 8) Fransiya; 9) Germaniya.
- A) 2, 4, 5, 6, 7, 9 B) 1, 3, 4, 6, 8, 9
 C) 1, 3, 5, 7, 8, 9 D) 2, 3, 4, 5, 7, 8

7.

[3,4 ball]

Quyidagilardan Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid **to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.**

- 1) 1940-yil iyulda qizil armiya Latviya, Litva, Estoniya hududlarini bosib oldi, hamda ushbu respublikalar majburiy ravishda Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritildi; 2) 1940-yil avgustda AQSh va SSSR urush payti va undan keyingi hamkorlik tamoyillari to‘g‘risida deklaratsiya – Atlantik xartiyani imzoladi; 3) Tinch okeanida Yaponiya boshlagan jangovor harakatlar AQShning urushga qo‘shilishini va antitler koalitsiyasining batamom shakllanishini tezlashtirdi; 4) 1942-yilning bahor-kuzida nemis qo‘sishnlari Moskva ostonalarida bo‘lib o‘tgan jangda jiddiy mag‘lubiyatga uchradi;
- 5) German qo‘sishlarining Stalingrad ostonalaridagi jangda mag‘lubiyyati urushda tub burilishni boshlab berdi; 6) 1942-yil yozida Yaponiya qo‘sishnlari Hindiston, Filippin, Indoneziya, Avstraliya hududlarini bosib oldi;
- 7) 1944-yil ittifoqchilar (antifashistik koalitsiya) Fransiyaning shimoli-g‘arbiga qo‘sish tushirib, Fransiya va Belgiyani ozod qildi; 8) 1944-yil sentabrda Sovet Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirdi; 9) 1945-yil fevralda Qrimdagi Yalta shahrida uch buyuk davlat rahbarlarining (AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya) uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

- A) 1, 3, 5, 7, 9 B) 1, 3, 4, 6, 8
 C) 2, 4, 5, 7, 8 D) 2, 3, 5, 6, 9

8.

[3,4 ball]

- Quyidagi lardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqe** mosligi to‘g‘ri berilgan?
- 1) Ukraina – V.Yushchenko – Yevroittifoq bilan hamkorlik to‘g‘risida kelishuvni imzolashdan bosh tortishi siyosiy inqirozga sabab bo‘ldi;
 - 2) Qirg‘iziston – K.Bakiyev – “Aprel inqilobi” deb atalgan ommaviy harakat natijasida hokimiyati ag‘darib tashlandi;
 - 3) Xitoy – Si Szinpin – Tyananmen maydonidagi talabalar namoyishi kuch bilan bostirildi;
 - 4) Germaniya – A.Merkel – mamlakat Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatiga aylandi;
 - 5) Yaponiya – Sindzo Abe – Tayvan oroli masalasida ilk bor AQShni ochiq qo‘llagani uchun Xitoy bilan munosabatlari keskin yomonlashdi;
 - 6) Italiya – S.Berlusconi – “Shimol ligasi” va “Milliy alyans” koalitsiyasi asosida hukumatni shakkantirdi;
 - 7) Eron – M.Hotamiy – mamlakatda demokratik va tolerant jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar boshlanganligi e’lon qilindi;
 - 8) Iraq – Saddam Husayn – Eronga qarshi urush boshladi.

- A) 1, 4, 5, 7, 8 B) 2, 3, 5, 6, 7
 C) 1, 3, 4, 6, 8 D) 2, 4, 6, 7, 8

9.

[3,4 ball]

Quyidagi tarixiy voqealarning **xronologik ketma-ketligi** to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) Ivan IV oprichninani bekor qilishga majbur bo‘ldi;
- 2) Tunis qirg‘oqlariga kelib tushgan 40 ming kishilik turk qo‘sishlari ispanlar hukmronligiga xotima yasadi;
- 3) Eron hukmdori shoh Ismoil I Safaviy Xorazmni bosib oldi;
- 4) Yaponiyada uchinchi Syogun sulolasini Tokugava xonadoni hukmronligi boshlandi;
- 5) Napoleon boshchiligidagi fransuz qo‘sishlari Misrga bostirib kirdi va Qohirani zabit etdi;
- 6) Buxoro xonligida ashtarkoniylar sulolasini hukmronligi boshlandi.

- A) 5, 3, 1, 6, 4, 2 B) 3, 1, 2, 6, 4, 5
 C) 1, 3, 5, 2, 4, 6 D) 4, 1, 5, 3, 6, 2

10.

[3,4 ball]

Quyida berilgan atamalar ularning izohi bilan **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni belgilang**.

- 1) integratsiya; 2) proteksionizm;
- 3) detsentralizatsiya; 4) xartiya; 5) direktiva;
- a) zo‘ravonlikni bartaraf etish uchun unga qarshi kurash mafkurasi; b) suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni; c) ijtimoiy tizimni jadal rivojlantirish maqsadida uni to‘liq yoki qisman yangilash, an‘anaviy jamiyatdan yangilangan jamiyatga, agar sivilizatsiyadan industrial sivilizatsiyaga o‘tish jarayoni;
- d) iqtisodiyotda ishlab chiqarishning nisbatan mo‘tadil, unchalik xavfli bo‘lmagan pasayishini yoki iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashuvi;
- e) ichki bozorni ma’lum cheklovlar orqali chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosat; f) qarorlar qabul qilish bo‘yicha vakolat va majburiyatlarni markazdan boshqa tashkilotlarga o‘tkazish; g) parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdarlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim; h) majburiy kuchga ega bo‘lmagan xalqaro aktning umumiyligi qoidalari va maqsadlarini ifodalaydigan hujjat; i) yuqori tashkilotning unga bo‘ysunuvchi tashkilotlarga beradigan ko‘rsatmasi, bajarilishi lozim bo‘lgan hujjat; j) biron turdagisi ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan texnik, tijorat va boshqa bilimlar majmuyi.

- A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-f, 5-i
 B) 1-b, 2-e, 3-f, 4-h, 5-i
 C) 1-c, 2-d, 3-e, 4-f, 5-j
 D) 1-b, 2-j, 3-h, 4-g, 5-i

11.

[3,4 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni o'qing.

I. U Panafrika harakatining ko'zga ko'ringan arboblaridan biri bo'lgan. U 1920-yilda "Orqaga, Afrikaga!" shiori bilan chiqadi va o'zini Afrikaning birinchi imperatori deb e'lon qiladi.

II. U AQSh prezidenti bo'lgan. 1898-yil Amerika-Ispaniya urushida shaxsan qatnashib, shuhrat qozongan. Monopoliyalarga qarshi kurash siyosati "Adolatli yo'l" deb nom olgan. Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan "yo'g'on kaltak" siyosatini yuritgan.

III. U 1913-yil AQShning qo'llab-quvvatlashi natijasida Meksikada davlat to'tarishini amalgamoshirib o'zining diktaturasini o'rnatadi. Uning diktaturasi davrida mamlakatda ahvol og'irlashadi. Milliy burjuaziya va burjualashgan pomeshiklarning bir qismi ham unga qarshi chiqadi. Mamlakatda F. Vilya va E. Sapata boshchiligida dehqonlar harakati boshlanadi. Uning diktaturasi davrida mamlakatda fuqarolar urushi boshlanadi. Milliy vatanparvar kuchlar tomonidan uning diktaturasi ag'darib tashlanadi.

Ushbu ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxslar haqidagi ekanligini aniqlang.

- A) I. Markus Garvi; II. Teodor Ruzvelt;
III. V.Uerta
- B) I. Uilyam Dyubua; II. Teodor Ruzvelt;
III. P.Dias
- C) I. Uilyam Dyubua; II. Uilyam Taft;
III. V.Uerta
- D) I. Markus Garvi; II. Uilyam Taft; III. P.Dias

12.

[2,4 ball]

Quyidagilardan Qoraxoniylar davlati tarixiga oid **TO'G'RI** ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Qoraxoniylar davlatining asoschisi Abdulkarim Sotuk Bug'roxon bo'lgan;
- 2) Horun Bug'roxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahrga hujum boshlaganda Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy somoniylarni qo'llab-quvvatladi;
- 3) Qoraxoniylar davlati, Xoqoniya – Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyanshanning janubiy yonbag'rida tashkil topgan davlat;
- 4) 1141-yilgi Qatvon cho'lidagi hal qiluvchi jangda Ibrohim Bo'ritegin (qoraxoniylar qo'shinlari saljuqiy Sulton Sanjar va qoraxitoylar tomonidan mag'lub etiladi);
- 5) Qoraxoniylar davlati poytaxti Buxoro, O'zgan, Samarcand shaharlari bo'lgan.

A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4

13.

[2,4 ball]

Buxoro xonligida harbiy qo'shin qismlari (bo'linmalari) va ularning harbiy yurishlar vaqtidagi vazifalari o'zaro to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) chanoh; 2) katta va kichik g'ullar;
 - 3) manglay; 4) tug'chi.
- a) dushman tomonidan asir olib kelish;
 - b) davlat bayrog'ini qo'riqlash; c) qo'shining qalb qismini dushmanning bexosdan qilinadigan hujumidan saqlash; d) qo'shining o'ng va chap qanotlarini qo'riqlash; e) Oliy bosh qo'mondon (xon) va sarkardalarni himoya qilish.
- A) 1-d, 2-e, 3-c, 4-a B) 1-e, 2-d, 3-a, 4-b
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-e D) 1-d, 2-e, 3-c, 4-b

14.

[3,4 ball]

Buxoro amiri Haydar boshqaruvi davriga oid **TO‘G‘RI** ma’lumotlarni aniqlang.

1) Shahrisabz va Miyonqolni amirlik tarkibida saqlab qolish uchun kurash olib bordi;
 2) Amudaryo qirg‘oqlarida Xiva-Buxoro o‘rtasida bo‘lgan jangda amir qo‘sishinlari Xiva qo‘sishinlarini mag‘lubiyatga uchratdi, jangda Eltuzarxon halok bo‘ldi; 3) amir Buyuk Britaniya elchilarini qabul qilmasligini, Afg‘oniston amiridan ularni Buxoroga o‘tishlariga ruxsat bermasligini so‘radi;
 4) O‘ratepani qo‘lda saqlab qolish uchun Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar olib bordi; 5) Buxoroga Aleksandr Byorns boshchiligida navbatdagi ingliz missiyasi keldi; 6) amir yuborgan elchilar Rossiya hukumati oldiga Ural daryosining Osiyo qit’asi qismidan amirlik savdogarlariga haq to‘lamasdan chorva mollari boqishlari uchun joy ajratib berish, Buxoroga po‘lat sotish, savdo karvonlarining talanishiga yo‘l qo‘ymaslik masalalarini qo‘ydilar; 7) Davlat boshqaruvi sohasida o‘tkazilgan islohotga ko‘ra, yuqori boshqaruv organi – Oliy Kengash ta’sis etildi; 8) ta’lim sohasida o‘tkazgan islohotiga ko‘ra, amirlikda hamma fuqarolar uchun zaruriy umumiyligi ta’lim joriy etildi.

- A) 1, 3, 4, 7, 8 B) 1, 2, 4, 6, 8
 C) 1, 3, 5, 6, 8 D) 2, 4, 5, 6, 7

15.

[2,4 ball]

Quyida berilgan ma’lumotlarni o‘qing.

I. Podsho hukumati tomonidan Xiva xonligi protektoratga aylantirilgandan so‘ng Amudaryo bo‘limidagi qoraqalpoqlarga nisbatan jabr-zulm kamaydi.

II. Podsho hukumati mahalliy aholini muntazam armiyada xizmat qilishidan, jangovor harbiy malakalarini oshirishidan, qo‘sishinlarni yevropachasiga takomillashtirishga o‘rgatishdan va zamonaviy qurol-yarog‘lardan foydalanish mahoratini egallab olishlaridan cho‘chir edi (XIX asr oxiri – XX boshi).

III. Qo‘qon xoni Xudoyorxon Ming sulolasining so‘nggi vakili hisoblanadi.

IV. O‘rta Osiyoda bosib olingan hududlar ma’muriy jihatdan bo‘linib, ular to‘liq harbiy zabitlar qo‘l ostida bo‘lgan.

V. Amaldorlarning o‘z mansablarini suiiste’mol qilishi, poraxo‘rligi kabi holatlarning ko‘payib ketishi 1892-yil Toshkent qo‘zg‘oloni (“Vaboisyoni”)ning boshlanish sabablardan biri hisoblanadi.

Ushbu ma’lumotlarning yakuniy xulosasi (to‘g‘ri/noto‘g‘ri) keltirilgan javobni aniqlang.

A) I-to‘g‘ri; II -noto‘g‘ri; III-noto‘g‘ri;
 IV-noto‘g‘ri; V-to‘g‘ri

B) I -to‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-to‘g‘ri; IV-to‘g‘ri;
 V-to‘g‘ri

C) I-noto‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-noto‘g‘ri; IV-to‘g‘ri;
 V-to‘g‘ri

D) I-noto‘g‘ri; II-to‘g‘ri; III-to‘g‘ri; IV-to‘g‘ri;
 V-noto‘g‘ri

16.

[3,4 ball]

Voqe va shaxs o'zaro mos berilgan javobni toping.

- a) Toshkenda "Vabo isyoni"; b) "Andijon qo'zg'oloni"; c) "Jizzax qo'zg'oloni"; d) "Tarbiyai atfol" jamiyatini tashkil etilishi;
- 1) Ziyovuddin maxsum; 2) Muhammad Yoqub;
- 3) Nazirxo'ja eshon; 4) Muhammaddin maxdum; 5) Hamidxo'ja Mehriy; 6) S. Putinsev; 7) Eshonqul To'rabetkov;
- 8) Muhammad Ali; 9) M.Chernyayev;
- 10) Solihbek dodxoh.

- A) a-2, 6; b-1, 8; c-3, 10; d-4, 7
 B) a-2, 6; b-1, 8; c-3, 7; d-4, 5
 C) a-2, 9; b-1, 8; c-3, 7; d-4, 5
 D) a-8, 9; b-1, 2; c-4, 7; d-3, 10

17.

[2,4 ball]

O'zbekiston SSR Sovetlarining 1935-yil 10-17-yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan V qurultoyi O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetiga bir necha takliflar kiritgan.

Quyidagilar orasidan shu takliflarni aniqlang.

- 1) 8 yoshdan to 15 yoshgacha bo'lgan hamma bolalarni majburiy yetti yillik ta'limga tortish;
- 2) respublikada arab yozuvidan lotin yozuviga o'tish;
- 3) respublika shahar va qishloqlarida yangi maktab binolari qurish dasturini ishlab chiqish;
- 4) arab imlosini isloh qilib, uni soddalashtirish.

- A) 2, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 1, 3

18.

[3,4 ball]

1920-yil Fayzulla Xo'jayev raisligida tashkil etilgan yangi hukumat – BXSR Nozirlar Sho'rosi tarkibiga kirgan shaxslarni aniqlang va ular egallagan lavozimlar mos ravishda ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Qori Yo'ldosh Po'latov; 2) Sobir Yusupov;
- 3) Muxtorjon Saidjonov; 4) Usmonxo'ja Po'latxo'jayev; 5) Najib Husainov;
- 6) Abdulhamid Oripov; 7) Yu.Ibrohimov;
- 8) Mukammal Burhonov; 9) Shihobuddinov;
- 10) Hoji Hasan Ibrohimov; 11) Mirzo Muhiddin Mansurov;
- a) maorif noziri; b) favqulodda komissiya raisi;
- c) adliya noziri; d) ichki ishlar noziri; e) moliya noziri; f) harbiy ishlar noziri; h) davlat nazorati noziri; g) savdo va sanoat noziri.

- A) 1-a, 3-d, 4-e, 5-h, 7-b, 8-c, 9-f, 11-g
 B) 2-a, 3-d, 4-e, 5-f, 7-b, 8-g, 9-h, 11-c
 C) 1-a, 3-c, 4-e, 5-h, 6-b, 8-d, 10-f, 11-g
 D) 2-a, 3-d, 4-e, 6-h, 7-b, 8-c, 9-g, 10-f

19.

[3,4 ball]

- Mustaqil O'zbekiston tarixi bilan bog'liq **TO'G'RI** ma'lumotlarni aniqlang.
- I.** 1990-1995-yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 250 deputatdan iborat bo'lgan.
- II.** Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanib, Oliy Majlisning qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.
- III.** O'zbekistonda Favqulodda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- IV.** 1991-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufida Chegara qo'shirlari boshqarmasi tashkil etildi.
- V.** Viloyatlar va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.
- VI.** 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzildi.
- A) II, III, V B) II, III, VI C) I, IV, VI
D) I, III, V

20.

[2,4 ball]

XIX asr so'nggi choragida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashdi.

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashuvining asosiy sabablarini aniqlang.

- 1) mamlakatda pensiya haqida qonun qabul qilindi va unga ko'ra pensiya yoshi 65 yosh deb belgilandi; 2) eksport hajmining importdan ortiq bo'lishi; 3) Prussiya bilan bo'lgan urush; 4) Uchinchi Respublika Konstitutsiyasini qabul qilinishi; 5) dehqonlar xarid quvvatining pastligi; 6) Fransiya chetga ko'p kapital chiqarib yuborgan edi.

- A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 3, 4, 5 C) 2, 4, 5, 6
D) 2, 3, 5, 6

21.

[2,4 ball]

Quyidagilar orasidan **TO'G'RI** ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.


- 1) 1958-yilda Buxoro viloyatida yirik Gazli kon-metallurgiya kombinatiga poydevor qo'yildi; 2) Muruntov oltin koni 1961-yilda ishga tushirilib, dastlabki sof quyma oltin 1963-yilda tayyorlangan; 3) 1927-yilda O'z SSR xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 62,6% ni tashkil etgan; 4) 1956-yilda Navoiy neft-gaz koni topildi; 5) O'zbekistonda xo'jalik boshqarishning birinchi besh yilligida 289 ta yangi sanoat korxonasi qurildi; 6) XX asr 30-yillarida Chirchiq-Bo'zsuv GESlar kaskadi barpo etildi.

- A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6 C) 2, 4, 5, 6
D) 1, 2, 3, 5

22.

[2,4 ball]

Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 2, 3, 5, 7
- B) 1, 5, 6, 8
- C) 1, 4, 6, 8
- D) 2, 4, 6, 8

23.

[2,4 ball]

Quyida keltirilgan mualliflarni ularning yozgan asarlari bilan moslashtiring.

- | | |
|------------------|--------------------------------|
| 1. Roka Tokutomi | a) "Olovli ustun" |
| 2. Naoe Kinosito | b) "Yashamagan yaxshi" |
| 3. Stiven Kreyn | c) "Tor-mor" |
| | d) "Jasoratning qonli belgisi" |


- A) 1-c, 2-d, 3-b
- B) 1-b, 2-a, 3-d
- C) 1-c, 2-b, 3-d
- D) 1-b, 2-a, 3-c

24.

[3,4 ball]

Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagramasiga mos ma'lumotlar **to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping**.

Buyuk Britaniya siyosiy partiyalari
Konservatorlar Liberallar



- a) partianing asosiy tayanchi – yirik zamindorlar va anglikan cherkovi;
- b) partianing asosiy maqsadi – Buyuk Britaniyani dunyoda yetakchi davlat maqomini saqlab qolishga intilish, mustamlaka imperiyani yanada kengaytirish;
- c) partianing asosiy tayanchi – o'rta sinf vakillari;
- d) partianing asosiy maqsadi – dunyo bozorlaridan o'z raqiblarini mumkin qadar ko'proq siqib chiqarishga intilish;
- e) partiya zamon ruhiga mos islohotlar o'tkazish tashabbuskorligi bilan ajralib turadi;
- f) partiya an'analarga sodiqligi bilan ajralib turadi.

- A) I-a, f; II-c, e; III-b, d
- B) I-c, f; II-a, b; III-d, e
- C) I-c, e; II-a, f; II-b, d
- D) I-b, c; II-a, f; III-d, e

25.

[1,3 ball]

Murg'ob daryosining o'rta oqimidagi hududlar va Marv vohasidan iborat bo'lgan qadimgi tarixiy viloyatning nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

26.

[1,3 ball]

Yunon-fors urushlari yunonlarning to'liq g'alabasi bilan, mil. avv. 449-yildagi sulh natijasida yakunlandi.

O'sha sulh nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

27.

[1,3 ball]

Italiya-Usmonli davlati urushi boshlangan vaqtida Italiya hukumatini **boshqargan shaxs** nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

28.

[1,3 ball]

Angliyada burjua inqilobi boshlangan vaqtida Angliyani boshqargan **qirol nomini** yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

29.

[1,3 ball]

2016-yil Filippin prezidenti etib saylangan shaxs 2006-yili bekor qilingan o'lim jazosini qayta tiklash tarafdori bo'lgan.

Ushbu Prezident nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

30.

[1,3 ball]

Xorazmda afrig'iylar sulolasidan keyin hokimiyatga kelgan sulolaning nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

31.

[1,3 ball]

Qadimgi Hindistonda kohinlik vazifasini o'tab, qurbanlik marosimlariga boshchilik qilgan, xalq orasida Vedalarni targ'ib qilish bilan shug'ullangan toifani (kasta) nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

32.

[1,3 ball]

2001-yili bu davlatda defolt e'lon qilinishi jahon tarixidagi eng yirik bankrot holati bo'lib, Lotin Amerikasi mamlakatlardagi neoliberal tajribalarga nuqta qo'ydi va mintaqada siyosiy hamda iqtisodiy rivojlanishning yangi davrini boshlab berdi.

Ushbu davlat nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

33.

[1,3 ball]

Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlari Olimp xudosi Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan.

Musobaqlarda g'alaba qozongan sportchi qaysi daraxt novdalaridan to'qilgan gulchambar bilan taqdirlanganlar?

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

34.

[1,3 ball]

O'rta asrlarda gotika uslubida qurilgan Shartr ibodatxonasi joylashgan davlat nomini yozing.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

35.

[2,4 ball]

Quyidagi jadvalda **tarixiy voqealari va uning natijasi o‘zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.**

Nº	Voqea	Natija
1.	Porfirio Diasning Meksika prezidenti deb e’lon qilinishi	Mamlakatning mustamlaka imperiyaga aylanishi
2.	Birinchi rus inqilobi	Rossiyada Davlat dumasi (parlament) ning joriy etilishi
3.	Birinchi Bolqon urushida Usmonli davlatining yengilishi	Albaniyaning mustaqillikka erishishi
4.	Italiya-Usmonli davlati urushi	Efiopiyaning Italiya mustamlakasiga aylanishi
5.	1894-yil Xitoy qo’shinlarining Pxenyan yonida yapon qo’shinlaridan mag’lubiyatga uchrashi	Yaponiyaning Uzoq Sharqda ustunlikka ega bo’lishiga yo’l ochilishi
6.	Xitoyning Yaponiya bilan urushda (1894-1895-yy.) mag’lubiyatga uchrashi	Chet ellik monopolistlar tomonidan Xitoyning yanada ko’proq talanishi va asoratga solinishi
7.	1907-yil Buyuk Britaniya-Rossiya bitimining imzolanishi	Eronning uch qismga bo’linishi

- A) 2, 3, 5, 6, 7
- B) 1, 3, 4, 5, 7
- C) 1, 2, 4, 5, 6
- D) 2, 3, 4, 6, 7

36.

[3,4 ball]

Quyidagi jadvalda **harflar bilan belgilangan kataklar o‘rniga mos keluvchi ma’lumotlar** to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.

Asr	O‘zbekiston tarixidagi voqeа	Jahon tarixidagi voqeа
a	b	Ivan IV Rossiya tarixida birinchi bor podsholik tojini kiyishi va “sar” deb atalishi;
X	c	d
e	G‘arbiy turk xoqonligining nihoyatda kuchayishi	f
g	h	Franklar davlatining tashkil topishi
XVIII	i	j
k	Movarounnahrda arablar boshqaruvining boshlanishi	l


Ma’lumotlar: 1) Buyuk Britaniya tomonidan Bengaliyaning bosib olinishi; 2) IX asr; 3) Eftallar davlatining tashkil topishi; 4) Vizantiya imperiyasining o‘z qudrati cho‘qqisiga erishishi; 5) Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasiga hukmronligining boshlanishi; 6) XVI asr; 7) Bolgariya podsholigining tashkil topishi; 8) Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola – mang‘itlar sulolasining kelishi; 9) XV asr; 10) VIII asr; 11) Shayboniyalar davlati poytaxtining Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilishi; 12) VII asr; 13) VI asr; 14) Polsha davlatining tashkil topishi; 15) Shohrux tomonidan Xorazm Oltin O‘rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug‘bek davlatining g‘arbiy va janubiy chegaralari xavfsizligining barqarorlashuvi; 16) O‘g‘uzlar davlati shimoli-sharqdan qo‘zg‘algan qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab, bo‘linib ketishi; 17) Kiyev Rusi davlatining tashkil topishi; 18) X asr; 19) Ispaniya hududida Arab xalifalikdan ajralib chiqqan birinchi mustaqil amirlikning tashkil topishi; 20) V asr.

- A) a-9, b-5, c-15, d-8, e-13, f-7, g-20, h-3, i-14, j-17, k-2, l-4
- B) a-6, b-11, c-16, d-8, e-12, f-17, g-18, h-15, i-14, j-1, k-2, l-4
- C) a-9, b-5, c-15, d-14, e-13, f-17, g-18, h-3, i-8, j-1, k-10, l-19
- D) a-6, b-11, c-16, d-14, e-12, f-7, g-20, h-3, i-8, j-1, k-10, l-19

37.

[2,4 ball]

Xaritada raqam ostida berilgan Lotin Amerikasi davlatlari mustaqillikka erishgan yillariga qarab xronologik tartibda ko'rsatilgan javobni toping (XIX asrning birinchi yarmi).



- A) 2, 5, 6, 1, 4, 3
- B) 2, 5, 1, 4, 3, 6
- C) 6, 3, 1, 4, 2, 5
- D) 6, 3, 4, 1, 5, 2

38-40.

Javob variantlaridan (A-F) foydalanib 38-40-topshiriqlarni bajaring.

Topshiriqlar	Javoblar
38. [2,4 ball] Qaysi hujjatning imzolanishi natijasida Yevropada Fransiyaning siyosiy roli oshdi?	A) Vestfal sulhi B) "Berlin traktati" C) Myunxen kelishuvi D) Gandamak bitimi E) San-Stefano shartnomasi F) Atlantik xartiya
39. [2,4 ball] Qaysi hujjatga ko'ra Avstriya-Vengriya Bolqondagi Bosniya va Gersegovinani bosib olish huquqini qo'lga kiritdi?	
40. [2,4 ball] Qaysi hujjatning imzolanishi natijasida butun Chexoslovakiya Germaniyaga topshirildi va yangi jahon urushiga yo'l ochib berdi?	